

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQ TOVUSHLARINI TO'G'RI
TALAFFUZ QILISHDA YO'L QO'YGAN KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH
YO'LLARI****Nasriddinova Nasiba Alimjonovna****Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi****Tel: 977819292****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886056>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishda yo'l qo'yadigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Biz uchun avvalo o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishimiz, ularning chuqur bilimga ega bo'lishlari, so'zlagan nutqini to'g'ri tushunishlari va taxlil qila olishlari uchun to'g'ri nafas olish turlari va ona tili va o'qish savodxonligi darslarida didaktik o'yinlardan to'g'ri foydalana bilishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, dars, nafas olish, o'qish, o'yin, fan, o'quvchilar, mashqlar, (G, K, X) harflari, "Kak-ku" o'yini, "Xo'roz, tovuq va jo'jalar" o'yini, "Nima yetishmaydi?" o'yini, "Kim mexmonga keldi" o'yini, "Telefon" o'yini, kiftan nafas olish, ko'krak- qorin orqali nafas olish, aralash nafas olish...

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri, nutq hosil bo'lish (fonatsiya jarayoni) paytida ya'ni nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Chunki, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi" [1] Darhaqiqat, nutq so'zlash jarayoni, xususan, ifodali o'qish san'ati nafas negizi bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchining nafas olishi qanchalik to'g'ri bo'lsa, ovozi va nutqi shu qadar jarangdor va kuchli bo'ladi. Tibbiyotga doir adabiyotlarda ham bu so'zlarimizning isbotini ko'rishimiz mumkin. Nafas olishning quyidagi turlari alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular bir- biridan farq qiladi.

1.Kiftan nafas olish. Nafas ko'krakning yuqori qismida olinib, kiftlar ko'tariladi. Bunday nafas olish zararli. U kishini tez charchatadi. Me'yorda so'zlashga imkon bermaydi.

2. Ko'krak- qorin orqali nafas olish. Bunday nafas olganda o'rta qovurg'alar, biqin harakatga keladi, ya'ni ular kengayadi.

3. Aralash nafas olish, ya'ni pastki qovurg'alar, diafragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko'krak qafasi va kiftlar ko'tarilmaydi. So'zlaganda ravon, hovliqmasdan tabiiy nafas olish, uni kerakli ohang talabiga ko'ra sarflash zarur. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunovlar tomonidan yaratilgan "Ifodali o'qish asoslari" o'quv qo'llanmasida nafas faoliyatini yaxshilash uchun quyidagi besh xil nafas mashqi tavsiya qilinadi:

1. Kontrol mashqi
2. Qorinni tortish mashqi.
3. Sanash mashqi.
4. Musalla' mashqi.
5. She'r o'qish mashqi.[2]

Bundan tashqari, maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib, boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallashi barchamizga ma'lum. Shuning uchun ham

o'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti- o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. [3] Bizga ma'lumki, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda uning sabablariga alohida e'tibor beriladi. Chunki, artikulyatsion motorika harakatchanligining yetishmasligi va fonematik idrokning rivojlanmaganligi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Fonematik idrokni shakllantirish va rivojlantirish ishlari esa tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash ishlari bilan parallel ravishda olib boriladi. Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlarda kuzatiladi. Artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlarning turiga til orqa (K,G,X) tovushlari kiradi. Til orqa tovushlarining aniq talaffuzini hosil qilishda, asosan mexanik usuldan keng foydalaniladi. Bizningcha bu tovushlarni hosil qilishda taqlid usulidan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan quyida keltirilgan o'yinlarni ko'rib chiqdik. Bu o'yinlarning asosiy maqsadi, taqlid qilish usuli orqali til tovushlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

“Kak-ku” o'yini

O'yinning maqsadi: “K” tovushini aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

O'yinning borishi: O'qituvchi bolalarga murojaat etib shunday deydi: “Esingizdami bolalar, biz sizlar bilan o'rmonga sayrga borgan edik. Bizlar yo'lda ketayotib, katta poliz yonidan chiqib qoldik. Qarasak, chumchuqlar polizdagi kungaboqarlarni cho'qishyapti, ularni bolalar haydab yuborishdi. Sizlar chumchuqlarni haydab yuborgan edingiz?” (“kisht-kisht”). Biz o'rmonga yetib bordik. U yer juda ham chiroyli edi, gullar tera boshladik. Birdaniga kakku sayray boshladi: “ka- ku, ka-ku...”. Kakku qanday sayraydi? (ka-ka-ku). Ko'p gullar terib orqamizga qaytdik. Ariq bo'yidan o'tdik. Ariq bo'yida qurbaqa chiroyli qurillayotgan edi. Qurbaqa qanday qurillaydi? (kva-kva-kva). Tovushlarga taqlid qilishda K tovushini aniq talaffuz etish lozim. K tovushini ovoz kuchi bilan ajratish kerak.

“Xo'roz, tovuq va jo'jalar” o'yini

O'yinning maqsadi: “K” tovushini bo'g'inlarda mustahkamlash.

O'yinning borishi: Bir bola xo'roz, bir bola tovuq, qolgan bolalar jo'jalar rolini bajarishadi. Tovux va jo'jalar don cho'qib o'tirishibdi. (bolalar barmoqlari bilan polni taqillatishadi). Xo'roz kirib kelganda, jo'jalar parda orqasiga yashirinib olishadi. Xo'roz “kuka-re-ku, ku-ka-re-ku, kichkina jo'jalar qani?” deb so'raydi. Tovux bo'lsa “qo-qo, qo-qo jo'jalaring ketib qoldi ularni izlab top deb javob beradi. Xo'roz jo'jalarni izlay boshlaydi. Jo'jalar topilgach birga o'ynashni taklif etadi. Jo'jalar tarqalib ketishadi. Xo'roz ularni quvalaydi. O'yin davomida rollar almashinadi. Xar bir bolaning tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz etishi kuzatib boriladi. Lozim kelganda tovushlar talaffuzi to'g'irlanadi.

“Nima yetishmaydi?” o`yini

O`yinning maqsadi: “K” tovushi bilan keladigan bo`g`in, so`z, gaplarni to`g`ri va aniq talaffuz etishga erishish.

O`yinning borishi: Bolalar stulchalarida o`tirishadi. O`qituvchi stol ustiga koptok, kosa, eshik, kapalak, kitob, rasmlarini yoki o`yinchoqlarni terib qo`yadi va bolalarga bu o`yinchoqlarni diqqat bilan ko`rib olishni taklif etadi. Chaqirilgan bola eshik orqasida turadi. Boshqa bir bola esa o`yinchoqlardan birontasini yashiradi. Eshik orqasida turgan bola kelib qaysi o`yinchoq yetishmasligini aytadi. Shundan keyin o`qituvchi, nomida “K” tovushi bor bo`lgan rasmlarni ko`rsatadi, bolalar ularning nomlarini aytadilar. Nomlangan predmet yoki rasmlar bo`g`inlarga bo`linib, “k” tovushi so`zning boshida, oxirida, o`rtasida kelgani aniqlanadi.

“Telefon” o`yini

O`yinning maqsadi: Bolalarni “G” tovushi bilan keladigan so`zlarni aniq va to`g`ri talaffuz etishga o`rgatish.

O`yinning borishi: Bolalar stulchalarda bir qator bo`lib o`tirishadi. O`qituvchi birinchi bo`lib o`tirgan bolaga so`zni pichirlab aytadi. U ham yonidagi bolaga pichirlab shu so`zni aytadi. Shu tariqa, aytilgan so`zni bir-birlariga pichirlab aytadilar. So`ngra so`zni birinchi bo`lib aytgan bola qatorning oxiriga borib o`tiradi. Bola oxirgi so`zni aytib bo`lganlaridan keyin ularga o`qituvchi rasm bo`yicha kichkina gap tuzishni taklif etishi mumkin. “Telefon” o`yini o`ynaganda bolalar so`znibbir-biriga pichirlab, aniq aytishlari lozim, aks holda so`z keyingi bolalarga tushunarsiz bo`lishi mumkin.

“Kim mexmonga keldi” o`yini

O`yinning maqsadi: “K-G” tovushlarini farqlash.

O`yinning borishi: Bolalar bir qator bo`lib o`tiradilar. O`qituvchi bolalarga murojaat qiladi. Bolalar bugun bizning maktabimizga qushlar, parrandalar mehmonga kelishibdi. Biz ularni aniqlashimiz kerak. O`qituvchi bolalarga rasmlarni ko`rsatadi. Bolalar esa rasmdagi qush yoki parrandaning ovozigga taqlid qiladilar. O`qituvchi: Qaranglar bolalar qushlar uchib kelishdi-deydi va rasmlarni ko`rsatadi. Bolalar rasmga qarab “kak-ku, kak-ku” “gu- gu - gu” deb ovoz chiqaradilar. So`ng o`qituvchi qurbaqaning rasmini ko`rsatadi. Bolalar “kva – kva - kva” deb ovoz chiqaradilar. O`qituvchi g`oz, xo`roz, tovuq rasmini ko`rsatadi. Bolalar ularning ovozlari taqlid qiladilar. O`yin davomida bolalar guruh bo`lib javob beradilar. So`ngra o`qituvchi har bir bolaga alohida rasmlarni ko`rsatib to`g`ri va aniq talaffuz etishni aniqlaydi.[4] Kelajagimiz bo`lgan yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish, so`z boyligini oshirish, o`qish savodxonligini rivojlantirgan xolda, jismonan sog`lom qilib tarbiyalash biz ustozlar zimmasidadir.

Birinchi prezidentimiz ta`kidlaganlaridek— Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart. [5]

References:

1. Nizomiddin Mahmudov. O`qituvchi nutqi madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. - Toshkent: 2007, 180-bet.
2. Inomxo`jayev S., Zunnunov A. Ifodali o`qish asoslari. -Toshkent: O`qituvchi, 1978.-14-15-betlar.
3. Qudratova G. Boshlang`ich ta`limda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati/

J.Ta'lim fidoiylari.(Respublika ilmiy- uslubiy jurnal archa sohalar bo'yicha.- 7,2021.- 198 - 200- betlar.252 b.

4. Hamidova S.U. Til orqa tovushlarni nutqga qo'yish, mustahkamlash va farqlashga oid o'yinlar/ J. Zamonaviy fan va ta'lim- tarbiya: muammo, yechim, natija " Respublika miqyosidagi ilmiy- amaliy online konferensiya materiallari. – № 3. Fan va ta'lim MChJ noshirlik xizmati nashryoti- 2021-yil. 129.B. 127-129- betlar.

5. Nasriddinova N. A Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini ona tili va o'qish savodxonligi darslarida turli metod va didaktik o'yinlardan foydalangan xolda rivojlantirish/ J.Ta'lim fidoiylari.(Respublika ilmiy- uslubiy jurnal barcha sohalar bo'yicha.- 2023.- 359- 365- betlar.367 b.

6. Qudratova G. Boshlang'ich ta'limda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati/ J.Ta'lim fidoiylari.(Respublika ilmiy- uslubiy jurnal barcha sohalar bo'yicha.- 2021.- 50- 54- betlar.252 b.

7. Axmedova Z., Ayupova M., Xamidova M. Logopedik o'yin. Toshkent. 2013.

8. M.Ayupova. Logopediya. Toshkent-2007.

9. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Y, Axmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2007.